

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ATAJANOV MUXIDDIN ILXOMOVICH

QADIMGI XORAZMDA SHAHARSOZLIK MADANIYATI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Atajanov Muxiddin Ilxomovich

Qadimgi Xorazm hududidagi shaharsozlik3

Атажанов Мухиддин Илхомович

Культура градостроительства в древнем Хорезме.....25

Atajanov Muxiddin Ilxomovich

The culture of urban planning in the ancient Khorezm region.....47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ATAJANOV MUXIDDIN ILXOMOVICH

QADIMGI XORAZMDA SHAHARSOZLIK MADANIYATI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2023.4.PhD/Tar1641 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyeva Nigora Azadovna
tarix fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ochidiyev Fayzulla Babakulovich
tarix fanlari doktori, professor

Turganov Baxit Kurbanbayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" aprel soat 14 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya matni bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1650 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "25" mart kuni tarqatildi.

(2025-yil "25" mart dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi.)



M. K. Saribaev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, tarix fanlari doktori, dotsent

X. X. Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, dotsent

U. I. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashtirish jarayonlarining tezlashuvi, aholining shaharlarga intilishi va to'planishi shaharsozlik madaniyatini yuksaltirishga, uning infratuzilmasini takomillashtirishga, ekologik muhitini yaxshilashga e'tiborni tobora kuchaytirmoqda. Bunda asosiy e'tibor shahar muhitida insonlarning yashash sharoitlarini qulaylashtirishga, turli shovqinlardan xoli qilishga, ko'kalamzorlashtirishga alohida e'tibor qaratishga, ayniqsa, tarixiy shaharlarning asl ko'rinishini saqlab qolishga qaratilgan. Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari bilan bir qatorda arxitektorlar, injenerlar, dizaynerlar, jamiyatshunoslar shaharsozlik madaniyatining qadimiy ildizlarini o'rganishga, rivojlanish jarayonlarini kuzatish va bugungi kundagi shaharsozlikda vujudga kelayotgan muammoli masalalarni yechishda ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Jahon miqyosida O'zbekiston hududidagi qadimgi davrga oid shaharlar tarixini o'rganish, ularning yoshini aniqlash, tarixiy rekonstruksiya qilish, 3 D formatini yaratishga doir salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda ayniqsa, arxeologlar tomonidan xorijiy davlatlar bilan olib borilayotgan hamkorlik ishlari samarali bo'lmoqda. Qadimgi Xorazm davlati hududidagi shaharlarni o'rganishda Avstraliya, Rossiya bilan, Surxondaryoda Yaponiya, Rossiya, Samarqandda Fransiya, Italiya, Buxoroda Amerika, Toshkentda Rossiya, Farg'onada Xitoy davlatlari bilan hamkorlikda arxeologik tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hamkorlikdagi tadqiqotlar jarayonida qadimiy shaharlarning yoshini aniqlashda laboratoriya tahlillarining o'tkazilishi, shaharlar tarixini o'rganishda yangi uslublarining qo'llanilishi qadimiy shaharlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin qadimiy shaharlar tarixini, shaharsozlik madaniyatini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida Xiva, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarga asos solingan davr aniqlanib, ularning yubileylari jahon miqyosida nishonlandi. O'zbekiston hududidagi ko'pgina shaharlar va ulardagi me'moriy obidalar YUNESKO ro'yxatiga kiritildi. Shaharlar tarixini tadqiq qilish bilan cheklanmasdan, ularning konservatsiya, rekonstruksiya ishlariga ham katta e'tibor qaratildi. Bu esa, bir tomondan ularning kelajak avlodga yetkazish masalalariga ko'maklashsa, ikkinchi tomondan, ma'naviy dunyoqarashni boyitishda, milliy o'zlikni anglashda va milliy g'ururni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga "O'zbekiston – 2030 strategiyasi"da ilgari surilgan O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirishda¹, shaharlar infratuzilmasini yaxshilashda, "yashil zonalar"ni ko'paytirish borasidagi masalalarni yechishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 11-avgustdagi PF-158-sonli "O'zbekiston–2030 strategiyasi" to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil

¹ "Ўзбекистон – 2030 стратегияси" тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ -158-сон. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

16-yanvar F–5181-sonli “Moddiy-madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishida hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi “Moddiy-madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 119-sonli qarorlarida belgilangan ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini ilmiy o‘rganish hamda targ‘ib qilish kabi fan va ta‘lim sohalariga tegishli vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi².

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qadimgi Xorazm shaharlarining tarixi yozma va arxeologik manbalar asosida XX asrning o‘rtalaridan keng o‘rganila boshlangan. O‘lkamiz tarixi bo‘yicha eng qadimiy yozma manba “Avesto” da eng qadimgi shahar “Kvadrat Vara” haqida yozib qoldirilgan³.

Qadimgi davrga oid shaharlarning arxeologik jihatdan o‘rganilishini 2 yirik davrga bo‘lish mumkin:

1. 1938-yildan – 1991-yilgacha bo‘lgan davr. Bu davrda Qadimgi Xorazm hududidagi tadqiqot ishlarini Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiya a‘zolari tomonidan olib borilgan. Bu davrda S.P.Tolstov, Ya.G‘.G‘ulomov, M.G.Vorobyeva, B.V.Andrianov, O.A.Vishnevskaya, I.Jobborov va boshqa bir qator arxeologlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ekspeditsiya a‘zolari tomonidan “Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining ilmiy ishlari (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции) to‘plamlarining 1952-yildan 1991-yilgacha 16 tomi va Xorazm ekspeditsiyasining materiallari (Материалы Хорезмской экспедиции) ilmiy to‘plamining 1959-yildan – 1975-yilgacha 10 ta nashri e‘lon qilingan. Bundan tashqari, ko‘plab ilmiy maqolalar va monografiyalar nashr qilingan bo‘lib, ularda qadimgi shaharlarning tarhi, qurilish uslubi, arxeologik tadqiqot natijalari tahlil qilingan.

2. 1991-yildan bugungi kungacha bo‘lgan davr bo‘lib, bu O‘zbekiston mustaqilligi davri bilan bog‘liq. Bu davrda O‘zRFA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Xorazm Ma‘mun akademiyasi, Avstraliyaning Sidney universiteti, Rossiyaning Arxeologiya instituti va Sharq xalqlari muzey

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3107036>; “Ўзбекистон–2030 стратегияси” тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>; 2018 йил 16 январь Ф–5181-сонли “Моддий-маданий ва археология мероси объекtlарини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармойиши [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3506332>; Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги “Моддий маданий мерос объекtlари ва ЮНЕСКОнинг умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган худудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 119-сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/5320217>.

³ Рапопорт Ю.А., Неразик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта. Образцы древнего Приаралья. – Москва: Индирик, 2000. – С. 25.

hamkorlikda tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu davrda V.N.Yagodin, M.Mambetullayev, G'.Xodjaniyazov, S.B.Bolelov, S.R.Baratov, V.G.Betts, N.A.Egamberdieva, Q.Sobirov, R.Abdrimov, M.S.Abdullayev, B.P.Sa'dullayev va boshqalar qadimgi davr shaharlar tarixini o'rganishga muhim hissa qo'shganlar.

Shaharlar tarixining o'rganilishi tadqiqot ishining 1.3. "Qadimgi Xorazmda shakllangan shaharlar tarixining o'rganilishi" bo'limida batafsil yoritib berilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qadimgi Xorazm shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarini tahlil qilish va uning taraqqiyot bosqichlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shaharlarning shakllanish omillari va tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini yoritish;

qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyati shakllanishi jarayonining omillari va an'analarini tahlil qilish;

qadimgi davr shaharlari tipologiyasini va ularning funksiyalarini asoslash;

markaziy va ixtisoslashgan shaharlarning o'rganilishi va ularning qurilish uslublarini qiyosiy solishtirish.

Tadqiqot obyektini Qadimgi Xorazm hududidagi shaharlar to'g'risidagi arxeologik ma'lumotlar, yozma manbalar, ilmiy-tarixiy adabiyotlar tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti sifatida Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va uning rivojlanish jarayonlari, ya'ni mil. avv. VIII – milodiy IV asrlargacha bo'lgan davr tarixi tahlili tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida xolislik va tizimli yondashuv tamoyillari, tarixiy taqqoslash, qiyosiy solishtirish, analiz, sintez, tizimli tahlil, muammoli-xronologik, topologik, tipografik kabi usullardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining shakllanishiga siyosiy, iqtisodiy omillar va janub aholisining migratsiyasi ta'sir ko'rsatganligi asoslangan;

shaharlar bunyod etiladigan joylarning beshta umumiy jihati ko'rsatilib, ularning bittasi bo'lsa-da, shahar qurilishiga asos bo'lishi mumkinligi va shu asos har bir shaharning o'ziga xosligini belgilovchi omil bo'lishi mumkinligi ko'rsatildi;

qadimgi Xorazmda harbiy me'morchilik va poliorketika yuksak daraja rivojlanganligi arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilindi;

qadimgi Xorazm shaharsozlik madaniyatini tadqiq qilish orqali markaziy shaharlarga qo'yilgan talablarning, markaziy shaharlarning turlari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

shaharsozlik madaniyati va urbanizatsiya tushunchalariga aniq ta'rif berilib, shaharsozlik madaniyatini tadqiq qilishning nazariy va uslubiy tamoyillari ishlab chiqildi;

tadqiqot davomida yig'ilgan va tahlil qilingan tarixiy–arxeologik materiallardan olingan ma'lumotlar hamda ilmiy xulosalardan teleradiokanalarda ko'rsatuvlar tayyorlashda, tadbirlar ishlab chiqishda, davlat dasturlari ijrosida, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun “Qadimgi shaharlar tarixi” uslubiy qo'llanmasini ishlab chiqishda asos bo'ldi;

ilmiy ish O'rta Osiyoning qadimgi shahar madaniyatini yoritishda arxeologik ma'lumotlarning manbashunoslik bazasini yanada kengaytirdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishining tarix va arxeologiya fanida tan olingan tadqiqot usullari hamda zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlarga tayangan holda bajarilganligi, ko'p turdagi tarixiy va arxeologik adabiyotlardan foydalanganligi, arxeologik materiallar xulosa, taklif va tavsiyalarning huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqotning ilmiy natijalaridan “O'zbekiston tarixi”ning qadimgi davr qismini yozishda, shaharsozlik madaniyatini tadqiq qilishdagi uslubiy yondoshuv va nazariy xulosalardan tarix, arxeologiya, manbashunoslik fanlari yo'nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligi uning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonning qadimiy madaniy merosini targ'ib qilish, turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan ma'lumotlar bilan boyitish, o'zbek xalqi tarixiy va madaniy merosini asrash, boyitib borish, milliy mafkurani shakllantirishda maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, o'zbek xalqi madaniyatiga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyati” mavzusidagi dissertatsiyaning ilmiy natijalari va tavsiyalaridan:

Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining shakllanishiga siyosiy, iqtisodiy omillar va janub aholisining migratsiyasi ta'sir ko'rsatganligi asoslangan, tarix fanlari bo'yicha PhD dissertatsiyasi dolzarb tarixiy-ijtimoiy jarayonlarning ilmiy tadqiqiga bag'ishlangan. Ushbu ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston” teleradiokanali DM tomonidan 2024-yil mart va sentyabr oylarida efirga uzatilgan “Ta'lim va taraqqiyot”, “o'zbekiston yoshlari”, “Millat va ma'naviyat” dasturlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 16- sentabrdagi 04-36-1024-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyati tarixi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga imkon bergan;

dissertatsiyada shaharlar bunyod etiladigan joylarning beshta umumiy jihati ko'rsatilib, ularning bittasi bo'lsa-da, shahar qurilishiga asos bo'lishi mumkinligi va shu asos har bir shaharning o'ziga xosligini belgilovchi omil bo'lishi ko'rsatganligi asoslangan. Shuningdek, shaharlar bunyod etiladigan joylarning beshta umumiy jihatlari ko'rsatilib, ularning bittasi bo'lsa-da shahar qurilishiga asos bo'lishi mumkinligi va shu bois har bir shaharning o'ziga xosligini belgilovchi omil bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ushbu ilmiy yangiliklardan o'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston” teleradiokanali DM tomonidan 2024-yil mart va sentabr oylarida efirga uzatilgan “Ta'lim va taraqqiyot”, “O'zbekiston yoshlari”,

“Millat va ma’naviyat” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-sentabrdagi 04-36-1024-sonli ma’lumotnomasi). Natijalarning qo‘llanilishi Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyati tarixi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga imkon bergan;

qadimgi Xorazmda harbiy me’morchilik va poliorketika yuksak darajada rivojlanganligi arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilinganligi ko‘rsatildi. Jumladan tadqiqot ishida Qadimgi Xorazmda harbiy me’morchilik va poliorketika yuksak darajada rivojlanganligi arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 23-sentyabrdagi 10-2025-sonli ma’lumotnomasi). Qadimgi Xorazm shaharsozlik madaniyatini tahlil qilish orqali markaziy shaharlarga qo‘yilgan talablar, markaziy shaharlarning turlari aniqlangan. Natijalarning qo‘llanilishi Qadimgi Xorazmda harbiy me’morchilik va poliorketika yuksak darajada rivojlanganligi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga imkon bergan;

qadimgi Xorazm shaharsozlik madaniyatini tadqiq qilish orqali markaziy shaharlarga qo‘yilgan talablarning, markaziy shaharlarning turlari aniqlandi. Ushbu ilmiy xulosalar va yangiliklardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari muzeyi manbalarini boyitishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 23-sentabrdagi 10-2025-sonli ma’lumotnomasi). Natijalardan Qadimgi Xorazm bo‘limi bo‘yicha muzey manbalarini boyituvchi qo‘llanma va ishlanmalarni ishlab chiqishda qo‘llanilgan. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi yangi ma’lumotlar O‘zbekiston tarixi bo‘yicha hududlardagi shaharsozlik sohasidagi qarashlarni va nazariyalarni takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 3 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, shu jumladan, 1 ta xalqaro konferensiya va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o‘tgan.

Natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, impakt-faktorli xorijiy jurnalda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning tadqiqot qismi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning “Kirish” qismda tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Shaharning shakllanish omillari va uning nazariy-metodologik asoslari”** deb atalgan, bu bob uch paragrafdan iborat. “Shaharlarning shakllanish omillari va ularning tadqiqoti masalalari” nomli birinchi paragrafida shaharlar insoniyat taraqqiyotining muhim yutuqlaridan biri ekanligi va u jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyoti zaminida vujudga kelib, uzoq tarixiy jarayonlarni bosib o‘tganligiga e‘tibor qaratilgan. Bugungi kunda shaharning shakllanish va rivojlanish tarixi bilan turli fan sohalari vakillari shug‘ullanib kelishadi. Ular o‘zlarining tadqiqot obyektidan kelib chiqib, fikr bildiradilar va shaharning turli jihatlarini tahlil qiladilar. Tarixchilar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilib, shaharlarning shakllanish omillari va rivojlanish jarayonlarini yoritadilar⁴. Shahar insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlarida vujudga kelgan va doimo jamiyatning harakatchan va yetakchi bo‘lagi bo‘lib kelgan.

Yaqin Sharqda ilk shaharlar mil. avv. VIII ming yilliklarda⁵, O‘zbekistonda mil. avv. II ming yilliklarda⁶ vujudga kelgan. O‘zbekiston hududida shakllangan ilk shahar Surxondaryo hududidan topilgan Jarqo‘ton yodgorligi hisoblanadi. Uni tadqiq qilgan akademik olim A.Asqarov ilk shaharga xos bo‘lgan barcha arxeologik belgilar unda mavjud ekanligini asoslab bergan. Bu bo‘limda shaharlarning shakllanish omillari tahlil qilingan.

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limi “Shaharsozlik madaniyatini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan. Unda “shahar” tushunchasi tahlil qilingan, shaharsozlik madaniyatining urbanizatsiya jarayoni bilan farqli tomonlari ko‘rsatilgan. Shaharsozlikda shahar va undagi binolarning qurilish uslubi, tarhi, me‘moriy bezaklari, ko‘cha va maydonlari, mudofaa tizimi, ixtisoslashuvi kabi masalalarga asosiy e‘tibor qaratiladi. Urbanizatsiya shaharning o‘sish va rivojlanish jarayonini tavsiflaydi. Bunda aholining ko‘payishi, iqtisodiy rivojlanish bilan shaharlarning o‘sish jarayoni ham tahlil qilinadi. Bo‘limda shaharsozlik madaniyatini o‘rganishning nazariy va uslubiy tamoyillari bayon qilingan. Qadimgi davr shaharsozlik madaniyatini o‘rganishning uslublari ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda arxeologik tadqiqotlar, tarixiy manbalar, kartografiya, qiyosiy tahlil, statistik, tipologik, topografik tahlillar, me‘moriy binolar va yodgorliklarning tarixiy tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

⁴ Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1982. – С. 5.

⁵ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Иерихон>; [wikipedia.org/wiki/Чатал-Хююк](https://ru.wikipedia.org/wiki/Чатал-Хююк).

⁶ Асқаров А. Энг қадимги шаҳар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 24 б.

Uchinchi bo'limda Qadimgi Xorazmda shakllangan shaharlar tarixining o'rganilish jarayonlari ko'rib o'tilgan. Shaharsozlik madaniyati tarixi yozma manbalar va arxeologik tadqiqot natijalarining tahlili asosida XX asrning o'rtalaridan keng o'rganila boshlangan. Bu jarayonda arxeologlar xalq orasida saqlanib qolgan afsona va rivoyatlarni ham tahlil qilganlar.

Qadimiy shaharlarning tarixi va qurilish uslubi, asosan, arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Qadimgi Xorazm qal'alarining arxeologik jihatdan o'rganilishini 2 yirik davrga bo'lish mumkin:

1. 1938-yildan – 1991-yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda Qadimgi Xorazm hududidagi tadqiqot ishlari Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan olib borilgan. Bu davrda S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, M.G.Vorobyeva, B.V.Andrianov, O.A.Vishnevskaya, I.Jobborov va boshqa bir qator arxeologlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

2. 1991-yildan bugungi kungacha bo'lgan davr bo'lib, bu O'zbekiston mustaqilligi davri bilan bog'liq. Bu davrda O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Avstraliyaning Sidney universiteti, Rossiyaning Arxeologiya instituti va Sharq xalqlari muzeyi hamkorlikda tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu davrda V.N.Yagodin, B.I.Vaynberg, M.Mambetullayev, G'.Xo'djaniazov, S.B.Bolelov, S.R.Baratov, V.G.Betts, N.A.Egamberdiyeva, Q.Sobirov, R.Abdrimov, M.S.Abdullayev, B.P.Sadullayev va boshqalar qadimgi davr shaharlari tarixini o'rganishga o'zlarining muhim hissasini qo'shganlar.

Buyuk ipak yo'li Qadimgi Xorazmning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ta'sir qilgan. Shaharlar savdo-sotiq markazi, davlat chegarasi, bojxona, iqtisodiy, ma'muriy, madaniy va harbiy markazlarining taraqqiy qilishiga olib kelgan. Qadimgi Xorazmda vohaning o'ziga xos tabiiy-geografik sharoitiga va siyosiy vaziyatiga mos me'morchilik maktabi shakllandi. Bu maktab tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlarida yanada taraqqiy qildi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi **“Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayonining omillari va an'analari”** deb nomlangan. Unda mil. avv.VIII-VI asrlarda Qadimgi Xorazmdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ilk shaharlarning shakllanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar va Qadimgi Xorazmning harbiy me'morchilik an'analari va ularning tadqiqi masalalari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi masalalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bayon qilingan. Bu masalalar O'zbekistonning boshqa hududlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. O'zbekistonning janubiy hududida ilk shahar bronza davrida shakllangan. Bu davrda Amudaryoning quyi oqimida Suvyorgan va Tozabog'yop madaniyati aholisi istiqomat qilgan. Mil. avv. I ming yillikning boshlarida bu madaniyatlar qorishuvi natijasida Amirobod madaniyati shakllangan⁷. Mil. avv. VIII-VII asrlarda Quyi Amudaryo havzasining shimoli-g'arbiy qismida Quvisoy aholisi, shimoli-sharqiy tomonida amirobodliklar, janubi-sharqiy qismida Meshekli madaniyati aholisi

⁷Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма // Ўзбекистон тарихи. 2007.– № 4. – С. 25.

yashagan. Bu madaniyatlarni yaratgan aholining barchasi, asosan, chayla, yarim yerto'lalarda istiqomat qilib, chorvachilik, qayir dehqonchiligi va metallga ishlov berish hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar.

Mil.avv. VI asrda esa Qadimgi Xorazm vohasining shimoli-g'arbiy qismida Ko'zaliqir, janubida Xumbuztepa va Xazorasp kabi mustahkam mudofaa devorlariga ega qal'alar qurilgan. Tadqiqotchilarda ham xuddi shu jihat, ya'ni chayla va yarim yerto'lalarda istiqomat qilib, qo'lda sopol idish yasab yurgan aholi qay tarzda qisqa muddat ichida mustahkam mudofaaga ega bo'lgan qal'alarni bunyod qilgan. Charxda ishlangan sopol idishlarning eksporti bilan shug'ullangan?- degan savol munozarada bo'lgan. Aynan shu savolni tadqiq qilish ham Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayoni bilan bevosita bog'liq. Tadqiqot ishida shu jihatga e'tibor qaratilgan va tahlil qilingan.

Bugungi kunda O'zbekistonlik tarixchilar o'rtasida Ko'zaliqir, Xumbuztepa va Xazorasp qal'alarining qurilish davri va shakllanish tarixi munozarali hisoblanadi. Akademik A.Asqarov Qadimgi Xorazm tarixidagi bu davrni tahlil qilib, uni mil. avv. VI asr bilan, asosan Doro I davri bilan bog'laydi va shaharlarning qurilishini janubdan kelgan aholi bilan bog'laydi⁸.

XX asrning 80-90-yillarida Xumbuztepa yodgorligini arxeologik jihatdan tadqiq qilgan olim S.B.Bolelov mil. avv. VII asrning oxirlari deb ko'rsatadi⁹. Uning fikricha, janubdan ko'chib kelgan xorasmiylar dastlab Janubiy Xorazm hududini o'zlashtirganlar. Tuyamo'yin atroflarida, Amudaryoning chap qirg'og'ida chayla qurib yashaganlar va o'zlarining kasblari bilan, ya'ni sopol idishlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanganlar, deb ko'rsatgan. Olim o'z fikrini shu davrda Murg'ob daryosi vohasining qurishi natijasida u yerda yashagan aholining ko'chishi bilan asoslagan.

Tadqiqot ishida Qadimgi Xorazmda ilk shaharsozlik madaniyati ahamoniylar hukmronligidan oldin shakllanganligi ko'rsatilgan va shakllanishiga 2 xil omil sabab qilib ko'rsatilgan:

Birinchisi: Janubiy Xorazm hududiga janubdan ko'chib kelgan aholi bo'lsa;

Ikkinchisi: Shimoliy-g'arbiy Xorazm hududida mahalliy chorvador aholi o'zining chorvalarini himoya qilish uchun bunyod qilgan qal'a.

Qadimgi Xorazm hududlariga janubdan aholining ko'chib kelishi masalasi tadqiqotchilar o'rtasida deyarli 100 yildan ortiq muhokama bo'lib kelgan. Uning asosida "Katta Xorazm" davlati masalasi o'rta qo'yilgan. Bir guruh olimlar Quyi Amudaryo bo'ylarida shakllangan davlat o'z hududlarini kengaytirib, Murg'ob vohasigacha borgan deb asoslashsa, boshqa guruh olimlar quyi Amudaryo bo'ylariga janubdan aholining ko'chib borganligini va ularning shaharsozlik madaniyatiga asos solganliklarini ko'rsatishgan¹⁰.

Bugungi kunda arxeologik tadqiqot ishlari natijalarini solishtirish orqali ham Quyi Amudaryo bo'ylariga aholining ko'chib kelib joylashganligi masalasiga

⁸Аскарлов А. Қадимги Хоразм тарихига доир баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. – Тошкент, 2004. – Б. 76-84.

⁹Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016. – С. 29-32.

¹⁰Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (VI–IV в. до н.э.): // Дисс. ... канд. истор. наук. – Нукус, 2001. – С. 82-93.

oydinlik kiritilmoqda. Amudaryoning quyi oqimi hududlaridan mil. avv. VI asrga oid sinkretik madaniyat izlari topilgan. Unda Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya madaniyatiga xos moddiy topilmalar topilgan¹¹. Bu masalada N.A.Egamberdiyeva Amudaryoning quyi oqimi dastlab Murg'ob vohasidan kelgan aholi tomonidan o'zlashtirilgan bo'lsa, keyinchalik ahamoniylar bosqini va siyosati natijasida Marg'iyona, Baqtriya hududlaridan aholi kelib joylashgan, degan xulosani bergan¹².

Qadimgi Xorazmning shimoli-g'arbiy hududlarida ahamoniylar imperiyasi o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa-da, hududdagi shaharsozlik madaniyatiga ularning ta'siri kuzatilmagan. Mahalliy an'analar yetakchi o'rinni egallagan. ahamoniylar hukmronligi o'rnatilgandan keyin Qadimgi Xorazm hududida qal'a-shaharlar sonining ortganligini ko'ramiz. Bu davrda Ko'zaliqir, Qalaliqir I, Oybuyirqala, Dingilji kabi arxeologik yodgorliklar o'rganilgan. Antik davrga oid ko'plab yodgorliklarning quyi qatlamlaridan ham arxaik davr madaniy qatlamlari aniqlangan: Bozor qal'a, Odamli qal'a, Toshxirmon tepa, Katta Qirqqiz qal'a, Ayoq qal'a va boshqalar¹³. Mil.avv. V asrga oid Dingilji qo'rg'oni topilgan. U Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Oqchadaryo bo'yida bunyod etilgan.

Mil. avv. V asrning oxirlarida Xorazm davlati imperiyaga qaramlikdan ozod bo'lgach, uning rivojlanishida tub o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ko'plab yangi qal'alar qurilib, davlat chegaralari yanada mustahkamlangan.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limida shaharlarning shakllanishi uchun zarur bo'lgan beshta omil ko'rsatilgan va ularning barchasi ham ilk shaharlar shakllanish jarayonida bo'lmasligi mumkinligi ham ko'rsatilib, ba'zida bitta omilning mavjud bo'lishi ham shaharning tarkib topishiga sabab bo'lishi asoslangan. Shu sababdan har bir shaharning o'ziga xos shakllanish tarixi bo'ladi. Buni esa sharoitning o'zi belgilaydi. Qadimgi Xorazmning tabiiy-geografik sharoiti tahlil qilinib, shaharlar shakllanishi uchun asos mavjud bo'lgan bo'lsa-da, bu hududga janubdan ko'chib kelgan aholining ta'siri bo'lganligi ham ko'rsatilgan. Qadimgi Xorazmning shimoli-g'arbiy qismida ilk shahar – Ko'zaliqirning shakllanishida Quvisoy madaniyati aholisining ta'siri kuzatilgan.

Qadimgi Xorazmda shaharsozlik madaniyatining rivojlangan davri antik davr, ya'ni mil. avv. IV asrdan – milodiy IV asrlar hisoblanadi. Bu davrda Xorazm mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan va o'z chegara hududlarini mustahkamlash uchun chegara hududlarda ko'plab shaharlarni bunyod etgan.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limida Qadimgi Xorazmning harbiy me'morchilik an'analari va ularning tadqiqi masalalari tahlil qilingan. Qadimgi davr shaharsozligida shaharlarning harbiy mudofaasi – fortifikatsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shaharlar fortifikatsiyasining takomillashuvi ham uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tgan. Shaharlarni tashqi dushmandan himoyalash uchun, birinchi navbatda, tabiiy to'siqlar – jarlik, tepalik, tog', daryo bo'ylari e'tiborga olingan. Lekin shaharlarning o'sishi bilan shahar mudofaasini sun'iy ravishda mustahkamlash

¹¹ Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма // – С. 33.

¹² Эгамбердиева Н.А. Амударё хавзаси худудларининг қадимги маданияти (мил. avv. VIII-мил. IV асрлар): Тарих фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дис // – Тошкент, 2021. – Б. 98.

¹³ Материалы к своду памятников истории и культуры Каракалпакской АССР // В двух томах. Отв. ред. В.Н.Ягодин. – Нукус, “Каракалпакстан”, 1995 –1996.

zaruriyati kelib chiqqan. Natijada, mudofaa devorlari, darvoza, burj, shinak, xandaq kabi sun'iy mudofaa tizimlari yaratildi. Bunday mudofaa tizimlari hududning geografik sharoitiga mos holda bunyod etildi. Bu jihat esa mudofaa tizimlarining takomillashuviga olib keldi. Harbiy qurollarning rivojlanishi ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shaharlarning mudofaa tizimini bunyod etishda bir qator mohir me'morlar, poliorketika¹⁴, qurilish, mudofaa ishlari bo'yicha mutaxassislar, hunarmandlar keng jalb etilgan.

Mudofaa tizimining takomillashib borishi davlatning iqtisodiy ahvoli, uning me'morchiligi va harbiy san'ati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, qo'shni mamlakatlardagi harbiy san'atda qo'lga kiritilgan o'zgarishlar ham unga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Qo'shni hududlar bilan o'zaro aloqalar yoki urushlar harbiy me'morchilikning doimo rivojlanishda yoki o'zgarishda bo'lib turishiga olib kelgan. Harbiy me'morchilikning rivojlanishi davlatlarning mustahkamligini ta'minlagan.

M.Mambetullayevning doktorlik dissertatsiyasining bir bobi Janubiy Xorazm mudofaa inshootlari masalasiga bag'ishlangan¹⁵. Olim stratigrafik ma'lumotlar va joylashtirish xususiyatlariga qarab Janubiy Xorazm mudofaa inshootlarini nisbiy davrlashtiradi hamda ularning dastlabki tipologik tasnifini qiladi. M.Mambetullayev mil. avv. IV-III asrlarda Janubiy Xorazm chegaralarida shimoldagi kabi istehkomlar zanjiri yuzaga keladi, deb xulosa beradi.

Qadimgi Xorazm qal'alarining mudofaa tizimlari to'g'risida G'.Xodjaniyazov va Q.Sobirovlar maxsus tadqiqot ishlarini olib borganlar¹⁶. G'.Xodjaniyazov Qadimgi Xorazm mudofaa tizimlarining rivojlanishini 3 bosqichga ajratib ko'rsatgan: 1. Arxaik davr - mil. avv. VII asr oxiri - VI-V asrlar; 2. Qanhxa davri - mil. avv. IV asr - milodiy I asr boshi, 3. Kushonlar davri - milodiy I-IV asrlarni o'z ichiga olgan. Olim tadqiqot ishida Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari tipologik jihatdan tasnif qilgan va ularning besh turini ajratib ko'rsatgan: 1. Shahar tipidagi istehkomli manzilgohlar. 2. Qo'rg'onlar. 3. Istehkomli ibodatxona inshootlari. 4. Istehkomli binolar yoki garnizon uchun kazarmalar. 5. Devkesgan g'ovi va Oqchaxonqal'a tashqi devorini uzun devorlar toifasiga kiritgan.

Q.Sobirovning "Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari" nomli asarida O'rta Osiyoda harbiy istehkomlarning vujudga kelishining eneolit davridan boshlab, kushonlar davrigacha bo'lgan evolyusiyasi masalalari ko'rib chiqilgan.

Qadimgi davrda O'rta Osiyoda mudofaa tizimini bunyod etishda asosan paxsa va xom g'ishtdan foydalanganlar. Devor asosi doimo yaxshilab pishirilgan loydan ishlangan mustahkam paxsa tiklangan. Uning yuqori qismi xom g'ishtdan ko'tarilgan. Xom g'ishtlar yog'ochdan ishlangan qoliplarda tayyorlangan. Ularga tang'a-belgilar qo'yilgan.

Shaharlarning asosiy mudofaa elementlari ark, devor, burj, shinak, darvoza hisoblangan. Ularning qanchalik mahorat bilan bunyod qilinganligi shaharga ko'rk ham bag'ishlagan va uning mustahkamligini ta'minlagan. Shu sababdan har bir shahar o'ziga xos tarzda bunyod etilgan. Mudofaa tizimlari bir xil uslubda yoki

¹⁴ Poliorketika - shaharlarni qamal qilish uslublari.

¹⁵ Мамбетуллаев М.М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э.–IV в. н. э. : Автореферат. на соис.уч.ст.докт. ист. наук. – Ташкент. 1994.

¹⁶ Собиров К. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг муҳофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009. – 195 б.

qolipda qurilmagan. Qadimgi davrda harbiy me'morchilik har bir shaharda qo'llanilgan. Shaharlarning vazifasidan kelib chiqqan holda, shunga mos ravishdagi me'moriy uslubda bunyod etilgan. Markaziy shaharlar, hududlardagi shaharlar, chegara shaharlar, qo'rg'onlar, gornizonlar, uzun himoya devorlarining qurilishi uslubi bir biridan farqlangan, shu bilan birga mahalliy o'ziga xoslik saqlanib qolgan.

Qadimgi Xorazm harbiy me'morchiligi Baqtriya, Sug'd va Marg'iyonadagi qal'a-shaharlarning qurilish uslublariga o'xshash bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bo'lgan. Bular - ikki qavatli otish yo'laklari, yarim oval, "qaldirg'ochdumi" shakllaridagi burjlar, nayzasimon shinaklarning keng tarqalganligi, peshdarvozaning murakkab turli uslublardagi adashtirma yo'llari, proteyxizmalardan keng foydalanilganliklarida ko'rinadi. O'rta Osiyodagi boshqa hududlarda, jumladan Shimoliy Baqtriya shaharlarining tashqi mudofaa devorlari uncha qalin bo'lmagan va proteyxizma ham zaif ishlangan. Bu tadqiqotchilar fikricha, qudratli harbiy qurollari bo'lmagan otliq va piyoda jangchilardan himoya qilish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Marg'iyonaning ilk shaharlari mudofaasida devor ichida yo'laklar va burjlar hozirgacha aniqlanmagan. Sug'd me'morchiligida paxsa va xom g'ishtlar aralashtirib ishlagan va burjlar asosan to'g'ri to'rtburchak shaklida ishlanib, mudofaa inshootlari qurishda bir xil uslub keng qo'llanilgan. Janadaryo, Quvandaryo, O'rta Sirdaryo havzasidagi shaharlarning mudofaa tizimi Qadimgi Xorazm me'morchiligi asosida rivojlangan. Bu Chirik Rabot, Bobishmulla 1, Balandi 1 va boshqa yodgorliklarning qurilish uslubi asosida aniqlangan¹⁷.

Uchinchi bob **“Qadimgi davr shaharlarininng tipologiyasi va ularning funksiyalari”** deb nomlangan. Unda Qadimgi Xorazm hududida shakllangan shaharlarning turlari va vazifalariga ajratilgan holda tahlil qilingan. Uning birinchi bo'limi “Markaziy shaharlar va ularning qurilish uslublari”da markaziy shaharlarning o'ziga xos xususiyatlari, ma'lum bir talablar asosida bunyod etilganligi ko'rsatilgan. Shaharlarning bunday maqom olishiga har bir hududning o'ziga xosligi sabab bo'lsada, ma'lum bir umumiy talablari ham mavjud bo'lgan. Bular: 1. Geografik joylashuvi. 2. Iqtisodiy aloqalarning faolligi. 3. Madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan turli binolar mavjud bo'lishi. 4. Siyosiy hususiyati. 5. Markaziy shaharlarda o'ziga xos infratuzilma shakllantirilishi.

Qadimgi davrda markaziy shaharlarning vazifasi va hususiyatiga qarab bir necha turlari bo'lgan:

1. Metropolis – bosh shahar. Bu hududning eng yirik shahri bo'lib, ular ma'muriy, siyosiy va madaniy markazlar hisoblangan. Bosh shahar muhim strategik joyda bunyod qilinib, o'zida kuchli siyosiy va iqtisodiy hokimiyatni aks ettiradi.

2. Port shaharlar: Geografik joylashuvi sababli ular savdo va iqtisodiy markaz vazifasini bajaradilar. Odatda dengiz yoki daryolar bo'ylarida qurilib, hududlar o'rtasida muhim savdo imkoniyatlarini yaratadilar.

3. Diniy shaharlar: Bular diniy e'tiqod va ibodat bilan bog'liq shaharlar bo'lib, ziyoratgohlar, ibodatxonalar va boshqa diniy binolar mavjud bo'ladi. Hudud

¹⁷ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта // – М., 1962. – С. 136 – 204.; Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муудофаа иншоотлари // – Б. 125.

aholisining diniy urf-odat va marosimlari shunday shaharlardan o'tkazilgan. Bunday shaharlarda turli hududlardan keladigan dindorlar va ziyoratchilar to'plangan.

4. Qo'rg'on shaharlar: Bunday shaharlar hajm jihatdan kichik bo'lib, mustahkam mudofaaga ega bo'lgan. Ko'pincha, chegara hududlarda yoki tashqi dushman havfi yuqori bo'lgan hududlarda bunyod etilgan. Ularning asosiy vazifasi hudud aholisini urush paytida himoya qilishdir. O'rta Osiyoda bunday shaharlar sug'orish tizimi bo'ylab ham bunyod etilgan. Asosiy vazifasi suvning sarfini nazorat qilish, xavfsizligini ta'minlash bo'lgan.

Markaziy shaharlar hududlarning siyosiy va ma'muriy boshqaruv markazi bo'lgan. Ular davlat boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etgan. Dehqonchilik vohalari o'ziga xos boshqaruviga ega bo'lgan davlat bo'g'ini sifatida faoliyat yuritgan¹⁸. Har bir dehqonchilik vohasida markaziy shahar qurilgan, uning atrofida qo'rg'onlar va qishloqlar shakllangan. Markaziy shaharda boshqaruv markazi-ark, markaziy maydon, ibodatxona, bozor, hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan. Markaziy shaharning qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan, chunki bunday shaharlar boshqaruv markazi bo'lishi bilan birga, atrofidagi aholining tinchligini ham ta'minlashga xizmat qilgan. Urush paytlarda aholi shu shaharga, ya'ni mustahkam mudofaaga ega bo'lgan qal'alarga kelishgan.

Qadimgi Xorazm hududida shakllangan ilk markaziy shaharlardan biri Ko'zaliqir yodgorligi hisoblanadi. U dastlab 1939-yilda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan aniqlangan¹⁹. Arxaik davrda markaziy shahar sifatida shakllangan yirik shaharlardan yana biri Xazorasp yodgorligi bo'lishi mumkin. 1959 – 1960-yillarda bu yerda olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning pastki madaniy qatlamini aniqlashning imkoni bo'lmagan²⁰. Faqat mil. avv. V asrga oid madaniy qatlamini aniqlash imkoni bo'lgan. Qal'a devorlarining qurilish uslubi va fortifikatsiyasi Qal'aliqir I nikiga o'xshash ekanligi ko'rsatilgan.

Mil. avv. V asrda Qadimgi Xorazm hududining keng o'zlashtirilishi kuzatiladi. Bunda dehqonchilikning rivojlanishi natijasida ko'plab dehqonchilik vohalari shakllangan. Bu markaziy shaharlar sonining o'sishiga olib kelgan. Bu davrda Qadimgi Xorazmning shimoli-sharqiy hududlari keng o'zlashtirilgan.

Amudaryoning chap sohili hududlari, ya'ni Qadimgi Xorazmning shimoli-g'arbiy qismida Janubiy Dovdonning yuqori oqimi chap sohilidagi hududlarni o'z ichiga olgan markaziy shahar Qal'aliqir I bunyod etiladi²¹. Qal'aliqir I yodgorligining ahamoniylar rezidensiyasi sifatida, ya'ni davlatning markaziy shahri sifatida qurilishi rejlashtirilgan. Uning qurilish uslubi ham ahamoniylarning qurilish uslubi asosida olib borilgan. Lekin olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uning qurilishi

¹⁸ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: О'zbekiston, 2015. – Б. 269.; Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон хуудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши (Бактрия мисолида). т.ф.д. илм. даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Самарқанд, 2009. – Б.30.; Ширинов Т., Шайдуллаев Ш. Бактрия минг шаҳарли мамлакат. //“Термиз: тарихий тадқиқотлар, илмий хулосалар”. – Ташкент: 2001. – Б.10.

¹⁹ Толстов С.П. Древности Верховного Хорезма. // “Вестник древней истории”. 1941. – №1. – С.178.; o'sha muallif: Городища с жилыми стенами. // КСИИМК. 1947. XVII. – С. 38.

²⁰ Мамбетуллаев М.М., Абдримов Р. Исследование Хазораспа // Культурное наследие Средней Азии. –Ташкент. – С. 165 - 167.

²¹ Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма. / ВДИ. – №1 (14). – М.: 1941. – С. 178.; О'sha muallif. Городища с жилыми стенами. / КСИИМК, вып. XVII. – М.: 1947.; Рапопорт Ю.А., Лапиров-Скобло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калалыгыр 1 в 1958 г. // МХЭ. Вып. 6. – М.: Наука, 1963. – С. 141.

yakunlanmay qolganligi aniqlangan. Bu davrga oid boshqa hududlardagi markaziy shaharlarning qurilishida mahalliy uslublar yetakchi bo'lgan. Tuzqir atrofidagi Oqchagelin qal'asi²², Katta Oybuyirqal'a va Xiva shahri ham bu davrda hududning markaziy shahri vazifasini bajargan.

Mil. avv. IV asrdan boshlab Qadimgi Xorazm hududida tubdan o'zgarishlar kuzatiladi. Bu davrda Qadimgi Xorazm ahamoniylar imperiyasi hukmronligidan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'lidan borgan. Bu jarayon shaharsozlik madaniyati rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Hududda aholi sonining oshishi bilan dehqonchilik vohalari ham ko'paygan. Bu esa markaziy shaharlar sonining oshishiga olib kelgan.

Mil. avv. IV asrga oid Qadimgi Xorazm hududidan topilgan eng yirik shahar Oqchaxon qal'a yodgorligi hisoblanadi. Uning faoliyati milodiy IV asrgacha davom etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu shahar davlatning asosiy yirik poytaxt shahri bo'lishi mumkin. Oqchaxonqal'a Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani hududida, Sulton Uvays tog' tizmalaridan 15 km janubda joylashgan. Oqchaxonqal'aning umumiy maydoni 56 gektarni tashkil etib, u ichki va tashqi qal'adan iborat. Ichki va tashqi qal'alarning har biri alohida mudofaa devorlari va xandaqlar bilan mudofaalangan²³. Ichki qal'aning shimoli-g'arbiy qismida saroy-ibodatxona topilgan. U ham kvadrat shaklida qurilgan bo'lib, 60x60 metrni tashkil etadi. Ibodatxonadan o'tgan yo'lak devorlarida devoriy suratlar aniqlangan. Bu yo'lakning umumiy uzunligi 240 metr bo'lib, bugungi kungacha uning 60 metrda tadqiqot ishlari olib borilgan²⁴. 2005 – 2008-yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijasida shimoliy yo'lakdan 30 nafar kishining portreti topilgan. Oqchaxonqal'adan topilgan devoriy suratlarda hukmdorlarning rasmi bilan birgalikda hayvonlar, qushlar, bog'lar va xudolarning tasvirlari ham aks ettirilgan. Bu Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimiy rangli devoriy surat hisoblanadi. Yodgorlikning to'liq o'rganilishi xalqimizning boy tarixi bilan yanada yaqindan tanishtirishga imkon beradi.

Antik davrda Qadimgi Xorazmda ko'plab yirik shaharlar bunyod etilgan, ularning maydoni 10 gektardan ortiq bo'lgan²⁵. Beruniy o'z asarida Qadimgi Xorazmda 300 dan ortiq shahar bo'lganligini yozib qoldirgan²⁶. Bu ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijasida ham aniqlangan. XX asrning 70-yillarda 300 dan

²² Толстов С.П. Работы ХАЭЭ АН СССР в 1949–1953 гг // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т.2. – М., 1958. – С. 26.; Низовя Амудары, Сарыкамьш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. Вып. 3. – Москва: Академия наук СССР, 1960. – С. 167.; Юсупов Х. Путеводитель по археолого-архитектурным памятникам Ташаузской области. – Ашхабад: Туркменистан, 1989. – С. 21-22.; Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. VII век до н.э. – VIII век н.э. – Москва: Восточная литература, 1999. – С. 30.

²³ Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.П. Раскопки на Акшахан кале // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар - 2000 йил, – №1. – Самарканд, 2001. – С.175 - 181.

²⁴ Ягодин В.М., Беттс А. Хоразмнинг номаълум ҳукмдорлари // Фан ва турмуш. 2008. – № 3-5. – Б.115.

